

Hamroqulova Parvina

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti

yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Usarova Laylo Ibragimovna

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Tog'ay Murod asari orqali shevalarning qo'llanilishi, ahamiyati o'rganiladi. Shu bilan birga asardagi halollik, sadoqatlilik, adolatlilik kabi oliy tushunchalar tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar : *Tog'ay Murod, qissa, ot, chavandoz, sheva, ibora, dialektologiya.*

O'zbek adabiyotida, o'zining asarlarida haqiqiy milliylikni aks ettirgan, nosir, jurnalist, tarjimon, Abdulla Qodiriy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati- Tog'ay Muroddir. O'z ijodini kichik hikoyalardan boshlagan adibning keyinchalik bir qator, jumladan, " Yulduzlar mangu yonadi", " Ot kishnagan oqshom", " Oydinda yurgan odamlar", "Momo yer qo'shig'i" singari qissalari birin -ketin chop etildi. Uning asarlari juda rang -barang : birida ikki sevishgan juftlikni Xudo farzandsizlik bilan sinashi, birida milliyligimizni aks ettirgan kurash, er -yigitlar or -nomusi, yana boshqasida halollik va mardlik tasvirlanadi.

Tog'ay Murodning " Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilingan " Ot kishnagan oqshom" qissasi uni nomini tanitdi. Ushbu asar adolat yo'lida kurashgan halol chavandoz haqida hisoblanadi. Adibning boshqa asarlari singari bu qissasida ham vohaliklar turmush tarzi va ularning so'zlashadigan shevalari aks etgan.

"Sheva" atamasi forsha so'z bo'lib, ovoz, til, so'zlashish, odat, yo'sin kabi ma'nolarni anglatib, ma'lum bir hudud uchun tushunarli bo'lgan birlikka aytiladi.[1:5]

"Ot kishnagan oqshom"qissasi Surxon shevasi bilan boyitilgan asardir.

Asardan shevaga oid parchalar va ularning izohi:

- Go‘lax bo‘ldim, podachi bo‘ldim.
- Olis yaldo kechalari bobolarimiz aytar edi.
- Qo‘lidagi xivchinni qo‘ylari ketidan otdi.
- Azzancha fahm -farosatli, azzancha xushsurat, lekin baribir ot.
- Surpday oppoq bo‘ladi.
- Teshikni kechalari janda bilan yopib qo‘ydim
- Tarlon tuzni kapalab -kapalab yedi.
- Pushtonni salqi qilib tortdim.
- Sovringa go‘sam serka qo‘yildi.
- Bir mayizjallob kelib qoldi.[2:17]

Ushbu parchalarda keltirilgan shevaga oid birliklarning izohlari :

- 1.Go‘lax -hammomning o‘t yoqiladigan joyi, bu yerda o‘t yoquvchi kasbi ma'nosida kelgan.
- 2.Yaldo kechasi -" chilla" kechasi, Eronning qadimiy bayramlaridan biri, bu yerda uzun kecha ma'nosida.
- 3.Xivchin-tayoq, cho‘p.
- 4.Azzancha -biroz degan ma'noda qo‘llangan.
- 5.Surp -ip, gazlama, ulardan tikilgan kiyim. Asarda rang ma'nosida qo‘llangan.
- 6.Janda -Ustki kiyim, choponning bir turi, eski kiyim ma'nosida kelgan.
- 7.Kapalab -kapalab -yalamoq degan ma'noda.
- 8.Pushton -egar to‘shagi ustidan uriladigani, bosma ayil.
- 9.Go‘sam-katta ma'nosida qo‘llangan.
- 10.Mayizjallob -qo‘shma so‘z. Jallob -savdogar, olib sotar, mayiz savdogari.

Bu kabi shevaga oid birliklar adib qissasiga badiiy tomondan jilo berib turadi. Asarni reallikka yaqin qilib ko‘rsatadi. Shevalar orqali asar qahramonlarining xarakteri ochib berilgan.

"Ot kishnagan oqshom" qissasi voqealari oddiy xalq orasidan olinganligi, qahramonlar o'rtasidagi munosabatda milliyligimiz ya'ni qadriyatlarimizning mavjudligi asarni kitobxonga tushunarli va sodda qilib ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ushbu asarda, T. Murod iboralardan ham unumli foydalangan. Asarda, labini burmoq, burnini jiyirmoq, ko'ngli g'ash bo'lmoq, qovog'ini uymoq, ko'ngli cho'kmoq, tilini tishlamoq kabi frazemalar qatnashgan. Badiiy ijodda iboralardan unumli foydalanish, yozuvchi yoki shoirning ilmiy salohiyatini belgilaydi.

"Ot kishnagan oqshom" qissasi qahramoni Ziyodulla oti Tarlonga bo'lgan mehri-insonning tabiatga qo'ygan mehriday sof, va samimiy. Chavandoz o'zi yashayotgan joydagi ikkiyuzlamachi odamlarga qarshi kurashgan haqiqiy qahramondir.

Qissa asl o'zbekning sodda va samimiy inson bo'lishi eng go'zal ifodalar bilan ko'rsatilgan.[3:4]

Xulosa qilib aytganda, Tog'ay Murodning ushbu asarida shevaga oid so'zlar qo'llansa-da, aynan dialektizm qahramon xarakterini ochib berishda asosiy rol o'ynaydi. Ziyodulla chavandozning chapani nutqi, Surxon xalqi ko'pkarisining" hid" ini olib keladi.

Fikrlarimni asarda meni chuqur o'yga solgan bir parcha bilan yakunlamoqchiman : " Adolat yo'q, adolat osmonda deymiz. Yo'q, birodarlar, adolat yerda! Oyoqlarimiz ostida! Adolat tuproqqa qorishib yotibdi! Adolatni kim bunday xor qilyapti?

Biz -o'zimiz!...

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati :

- 1.Y. Saidov " O'zbek dialektologiyasi" Buxoro . 2021.5-b.
- 2.T. Murod " Ot kishnagan oqshom" qissasi. Toshkent. 2020.17-b.
- 3.P. Qodirov " Ot kishnagan oqshom" qissasiga taqriz. Toshkent. 4-b.
- 4.Oyina. uz sayti